



UDK: 316.42:321.7:323.21

*Inomjon ERGASHEV,*

*Mustaqil tadqiqotchi, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston*

*E-mail: i.ergashev@mial.ru, ORCID: 0009-0006-6050-2098*

*FarDU professori, DSc I.Siddiqov taqrizi asosida*

## DEMOKRATIK JAMIYAT RIVOJIDA TINCHLIK VA BARQARORLIKNI TA’MINLASHNING IJTIMOY-FALSAFIY JIHATLARI

Annotatsiya

Quyidagi maqolada demokratik jamiyat taraqqiyotida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tinchlik va barqarorlik tushunchalarining nazariy mazmuni, ularning demokratik institutlar faoliyati bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda fuqarolik jamiyati rivojidadagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy konsensus, fuqarolik birdamligi, ijtimoiy adolat va huquq ustuvorligi tamoyillarining jamiyatda barqaror taraqqiyotni ta’minlashdagi ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, demokratik transformatsiya jarayonlarining muvaffaqiyati jamiyatda tinchlik madaniyati, o‘zaro ishonch va konstruktiv muloqotning shakllanish darajasiga bevosita bog‘liq ekanligi asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** Tinchlik, barqarorlik, demokratik jamiyat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy konsensus, huquq ustuvorligi, fuqarolik birdamligi, ijtimoiy taraqqiyot.

## DEMOCRATIC SOCIETY DEVELOPMENT: SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF ENSURING PEACE AND STABILITY

Annotation

This article analyzes the socio-philosophical foundations of ensuring peace and stability in the development of a democratic society. The study examines the theoretical essence of peace and stability, their relationship with democratic institutions, and their role in civil society development. Particular attention is paid to social consensus, civic solidarity, social justice, and the rule of law as fundamental factors of sustainable development. The findings indicate that the success of democratic transformation largely depends on the formation of a culture of peace, mutual trust, and constructive dialogue within society.

**Key words:** Peace, stability, democratic society, civil society, social consensus, rule of law, civic solidarity, social development.

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ МИРА И СТАБИЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье анализируются социально-философские основы обеспечения мира и стабильности в развитии демократического общества. Рассматриваются сущность понятий мира и стабильности, их взаимосвязь с демократическими институтами и роль в развитии гражданского общества. Особое внимание уделяется социальному консенсусу, гражданской солидарности, социальной справедливости и верховенству закона как важнейшим условиям устойчивого развития общества. Делается вывод о том, что успешность демократических преобразований непосредственно зависит от формирования культуры мира, взаимного доверия и конструктивного диалога.

**Ключевые слова:** Мир, стабильность, демократическое общество, гражданское общество, социальный консенсус, верховенство закона, гражданская солидарность, общественное развитие.

**Kirish.** XXI asrda demokratik taraqqiyot masalalari global siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning markaziy mavzularidan biriga aylandi. Jamiyatning demokratik rivojlanishi faqat siyosiy institutlarning mavjudligi bilan emas, balki tinchlik va barqarorlik muhitining shakllanganligi bilan ham belgilanadi. Tinchlik va barqarorlik jamiyat taraqqiyotining zarur sharti sifatida iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy integratsiya va fuqarolik faolligining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Demokratik jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri ham tinchlik va barqarorlikni ta’minlash hisoblanadi. Tinchlik jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishi uchun zarur ijtimoiy muhitni yaratadigan asosiy qadriyat bo‘lsa, barqarorlik ijtimoiy tizimning izchil faoliyat yuritishi va taraqqiyotning uzviyligini ta’minlaydigan muhim omildir. Zamonaviy globallashtirish sharoitida dunyoning turli mintaqalarida yuz berayotgan geosiyosiy ziddiyatlar, ijtimoiy tengsizlik, migratsiya jarayonlari va axborot

xavfsizligi bilan bog‘liq tahdidlar tinchlik va barqarorlik masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Demokratik jamiyatlarda tinchlik va barqarorlikning mustahkamlanishi fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanganligi, qonun ustuvorligi va ijtimoiy hamkorlik darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson qadrini ulug‘lash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va millatlararo totuvlikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida tinchlik va barqarorlikni saqlash, jamiyatda hamjihatlik muhitini mustahkamlash hamda fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa mazkur muammoni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, tinchlik insonlar o'rtasidagi ziddiyatlarning zo'ravonliksiz hal qilinishini anglatadi, barqarorlik jamiyat tizimining muvozanatli rivojlanishini ifodalaydi. Shu sababli demokratik jamiyatning mustahkamligi ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zaro ishonch, hamkorlik va konsensusning mavjudligi bilan belgilanadi [1].

Demokratik jamiyatda tinchlik va barqarorlikning ta'minlanishi davlat, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolarning hamkorlikdagi faoliyatiga asoslanadi. Ayniqsa, globallashtirish va axborotlashuv sharoitida turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi muloqot va hamjihatlikni mustahkamlash muhim vazifaga aylanmoqda.

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, tarixiylik, ijtimoiy-falsafiy umumlashtirish hamda konseptual yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tinchlik va barqarorlik masalalariga oid klassik va zamonaviy nazariyalar, demokratik rivojlanish konsepsiyalari hamda fuqarolik jamiyatiga oid ilmiy qarashlar o'rganildi. Shuningdek, demokratik jamiyatning barqaror rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi.

**Natijalar va muhokama.** Tinchlik va barqarorlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati. Tinchlik tushunchasi insoniyat tafakkurida qadimdan markaziy o'rin egallab kelgan. Afrotun va Arastu davlatning asosiy vazifalaridan biri jamiyatdagi uyg'unlikni ta'minlash ekanligini ta'kidlaganlar [2]. Zamonaviy falsafada esa tinchlik nafaqat urushning yo'qligi, balki ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va inson huquqlarining ta'minlangan holati sifatida talqin qilinadi.

Norvegiyalik olim Yoxan Galtung "ijobiy tinchlik" konsepsiyasini ilgari surib, jamiyatdagi strukturaviy tengsizliklarning bartaraf etilishi tinchlikning muhim sharti ekanligini asoslagan [3]. Mazkur yondashuv demokratik jamiyatning mohiyatini tushinishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Barqarorlik esa ijtimoiy tizimning tashqi va ichki omillar ta'sirida o'z funksiyalarini samarali bajarish qobiliyatini anglatadi. Talcott Parsons jamiyatning yashovchanligi integratsiya va qadriyatlar birligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi [4]. Shu ma'noda, demokratik jamiyatda barqarorlik siyosiy institutlar faoliyati va fuqarolarning ijtimoiy mas'uliyati uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Demokratik institutlar va ijtimoiy barqarorlik. Demokratik institutlar fuqarolarning siyosiy ishtirokini ta'minlash orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Saylov tizimi, parlament, siyosiy partiyalar va ommaviy axborot vositalari fuqarolarning manfaatlarini ifodalash imkoniyatini yaratadi.

J. Habermas demokratik jamiyatning muvaffaqiyatini kommunikativ muloqot va erkin diskurs bilan bog'laydi [5]. Demokratik institutlar faoliyatining ochiqligi va shaffofligi fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Ishonch esa barqarorlikning eng muhim ijtimoiy kapitali hisoblanadi. Robert Putnamning tadqiqotlari ham ijtimoiy kapital va fuqarolik ishtiroki darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda demokratik boshqaruv samaraliroq faoliyat yuritishini ko'rsatadi [6].

Ijtimoiy konsensus va fuqarolik birdamligi. Demokratik taraqqiyotning muhim omillaridan biri ijtimoiy konsensusdir. Konsensus turli manfaatlar va qarashlarga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlarning umumiy maqsadlar atrofida birlashishini anglatadi. Zamonaviy demokratik jamiyatlarda konsensus fuqarolik birdamligi va ijtimoiy hamjihatlikning asosini tashkil etadi. Fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtiroki ziddiyatlarni konstruktiv yo'l bilan hal qilish imkonini beradi [7].

Ijtimoiy birdamlikning zaiflashuvi esa radikallashtirish, ijtimoiy ajralish va siyosiy beqarorlik xavfini kuchaytiradi. Shu sababli demokratik davlatlar fuqarolar o'rtasida o'zaro hurmat, bag'rikenglik va hamkorlik madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

Huquq ustuvorligi va ijtimoiy adolatning ahamiyati. Huquq ustuvorligi demokratik jamiyatning eng muhim tamoyillaridan biridir. Qonunlarning ustuvorligi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga xizmat qiladi. J. Rolsning adolat nazariyasiga ko'ra, jamiyatning barqaror rivojlanishi adolat tamoyillarining amalda ta'minlanishiga bog'liq [8]. Adolatning mavjudligi fuqarolarda davlatga nisbatan ishonch hissini shakllantiradi va ijtimoiy ziddiyatlarning oldini oladi. Ijtimoiy adolat va huquqiy tenglik ta'minlangan sharoitda fuqarolar o'z manfaatlarini qonuniy vositalar orqali amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa tinchlik va barqarorlikni mustahkamlovchi muhim omillardan biridir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyat rivojida tinchlik va barqarorlik bir-birini to'ldiruvchi kategoriyalar hisoblanadi. Ularning mavjudligi demokratik institutlar samaradorligi, fuqarolik madaniyati darajasi va huquq ustuvorligining ta'minlanganligi bilan chambarchas bog'liq.

Bugungi globallashtirish sharoitida ijtimoiy tarmoqlar, raqamli kommunikatsiyalar va transmilliy axborot oqimlari ijtimoiy ongga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois tinchlik madaniyatini rivojlantirish va fuqarolarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish muhim vazifaga aylanmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham demokratik islohotlarning muvaffaqiyati fuqarolik birdamligi, millatlararo totuvlik va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash bilan bevosita bog'liqdir. Tinchlik va barqarorlikning saqlanishi jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini hisobga oluvchi inklyuziv boshqaruv tizimini talab etadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, tinchlik va barqarorlik demokratik jamiyat taraqqiyotining asosiy shartlari va muhim ijtimoiy qadriyatlari hisoblanadi. Ular jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi, inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining samarali faoliyat yuritishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash faqat davlatning siyosiy faoliyati bilan emas, balki fuqarolarning huquqiy madaniyati, ijtimoiy mas'uliyati, millatlararo totuvlik va bag'rikenglik tamoyillariga amal qilishi bilan ham uzviy bog'liqdir. Demokratik jamiyatda ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolarning boshqaruv jarayonlaridagi faol ishtiroki barqaror taraqqiyotning muhim omillari sifatida namoyon bo'ladi.

Demokratik jamiyat rivojida tinchlik va barqarorlik strategik ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-falsafiy qadriyatlardir. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

tinchlik va barqarorlik demokratik taraqqiyotning zarur sharti hisoblanadi;

ijtimoiy konsensus va fuqarolik birdamligi demokratik institutlar samaradorligini oshiradi;

huquq ustuvorligi hamda ijtimoiy adolat barqaror rivojlanishning asosiy omillaridir;

demokratik transformatsiya muvaffaqiyati fuqarolarning o'zaro ishonchi va muloqot madaniyatiga bog'liq;

fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim mexanizmi hisoblanadi.

Shunday qilib, demokratik jamiyatda tinchlik va fuqarolarning o'zaro hamkorligiga asoslangan murakkab barqarorlikni ta'minlash davlat, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Giddens A. The Consequences of Modernity. – Stanford: Stanford University Press, 1990.
2. Aristotle. Politics. – Oxford: Oxford University Press, 2009.
3. Galtung J. Peace by Peaceful Means: Peace and Conflict, Development and Civilization. – London: Sage Publications, 1996.
4. Parsons T. The Social System. – New York: Free Press, 1951.
5. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1. – Boston: Beacon Press, 1984.
6. Putnam R.D. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. – Princeton: Princeton University Press, 1993.
7. Castells M. The Power of Identity. – Oxford: Blackwell Publishing, 2010.
8. Rawls J. A Theory of Justice. – Cambridge: Harvard University Press, 1999.
9. Fukuyama F. Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity. – New York: Free Press, 1995.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.